SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# 1 KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023-yil 1-mart holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 26 347 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 22 327 ta). 2019- yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 61,5 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 75,1 foiz) tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda.*



# 1- BO‘LIM. SURXONDARYO VILOYATI BO‘YICHA KORXONA VA TASHKILOTLARNING SONI

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

69 | 30,5 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

80 | 46,5 %



Sanoat

48 | 80,0 %



Qurilish

291 | 99,7 %



Savdo

19 | 70,4 %



Tashish va saqlash

53 | 98,2 %



Yashash va ovqatlanish

14 | 127,3 %




Axborot va aloqa

5 | 26,3 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

62 | 51,2 %



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 641 tani tashkil qildi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Oltinsoy t. | 35 | 3,2 % | Qiziriq t. | 54 | 4,7 % |
| Angor t. | 22 | 1,5 % | Sariosiyo t. | 34 | 2,3 % |
| Bandixon t. | 14 | 2,2 % | Termiz t. | 34 | 2,2 % |
| Boysun t. | 15 | 1,4 % | Uzun t. | 29 | 2,1 % |
| Muzrabot t. | 30 | 2,6 % | Sherobod t. | 64 | 3,8 % |
| Denov t. | 64 | 2,2 % | Sho‘rchi t. | 40 | 2,4 % |
| Jarqo‘rg‘on t. | 56 | 3,0 % | Termiz sh. | 126 | 2,3 % |
| Qumqo‘rg‘on t. | 24 | 1,4 % | | | |

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni

| Yil | Soni |
|---|---|
| 2023 | 26 347 |
| 2022 | 28 871 |
| 2021 | 26 002 |
| 2020 | 19 983 |
| 2019 | 16 312 |

### Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

| 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|
| 113,6 % | 122,5 % | 130,1 % | 111,0 % | 91,3 % |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**2 860**
**74,3 %**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**3 820**
**81,1 %**

Sanoat

**2 586**
**92,4 %**

Qurilish

**8 101**
**97,2 %**

Savdo

**759**
**89,4 %**

Tashish va saqlash

**1 576**
**90,7 %**

Yashash va ovqatlanish

**340**
**103,7 %**


Axborot va aloqa

**439**
**95,4 %**

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**5 866**
**101,1 %**

Boshqa turlar

2023- yil 1- mart holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga (16 312 ta) nisbatan 10 035 taga ko‘paygan. Quyidagi sohada korxonalar sonining o‘sishi bilan ifodalash mumkin: savdoda – 4 087 tadan 8 101 taga (o‘sish 4 014 ta).

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Termiz sh. | 5 496 | 20,8 % | Angor t. | 1 468 | 5,6 % |
| Denov t. | 2 864 | 10,9 % | Uzun t. | 1 352 | 5,1 % |
| Jarqo‘rg‘on t. | 1 838 | 7,0 % | Muzrabot t. | 1 165 | 4,4 % |
| Qumqo‘rg‘on t. | 1 737 | 6,6 % | Qiziriq t. | 1 154 | 4,4 % |
| Sherobod t. | 1 706 | 6,5 % | Boysun t. | 1 109 | 4,2 % |
| Sho‘rchi t. | 1 643 | 6,2 % | Oltinsoy t. | 1 096 | 4,2 % |
| Termiz t. | 1 581 | 6,0 % | Bandixon t. | 639 | 2,4 % |
| Sariosiyo t. | 1 499 | 5,7 % | | | |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**69**
**30,5 %**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**80**
**46,5 %**

Sanoat

**48**
**80,0 %**

Qurilish

**291**
**99,7 %**

Savdo

**19**
**70,4 %**

Tashish va saqlash

**53**
**98,1 %**

Yashash va ovqatlanish

**14**
**127,3 %**


Axborot va aloqa

**5**
**31,3 %**

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**48**
**55,1 %**

Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2023-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 627 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 627 ta.

## Hududlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Termiz sh. | 126 | 2,6 % |
| Sherobod t. | 64 | 4,4 % |
| Denov t. | 59 | 2,4 % |
| Jarqo‘rg‘on t. | 55 | 3,5 % |
| Qiziriq t. | 54 | 5,5 % |
| Sho‘rchi t. | 39 | 2,8 % |
| Sariosiyo t. | 34 | 2,8 % |
| Termiz t. | 34 | 2,4 % |
| Oltinsoy t. | 33 | 3,9 % |
| Muzrabot t. | 29 | 3,0 % |
| Uzun t. | 26 | 2,3 % |
| Qumqo‘rg‘on t. | 23 | 1,6 % |
| Angor t. | 22 | 1,7 % |
| Boysun t. | 15 | 1,7 % |
| Bandixon t. | 14 | 2,7 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**2 825**

**74,0 %**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**3 820**

**81,1 %**



Sanoat

**2 584**

**92,4 %**



Qurilish

**8 101**

**97,2 %**



Savdo

**756**

**89,3 %**



Tashish va saqlash

**1 569**

**90,7 %**



Yashash va ovqatlanish

**333**

**103,4 %**




Axborot va aloqa

**363**

**94,0 %**



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**2 078**

**98,0 %**



Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- mart holatiga 22 429 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 174,7 foizni tashkil etdi (9 587 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 36,1 foiz, sanoat – 17,0 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 12,6 foiz, qurilish – 11,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 7,0 foiz, tashish va saqlash – 3,4 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 1,6 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, boshqa turlari – 9,3 foiz.

## Hududlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Termiz sh. | 4 931 | 22,0 % |
| Denov t. | 2 448 | 10,9 % |
| Jarqo‘rg‘on t. | 1 568 | 7,0 % |
| Sherobod t. | 1 461 | 6,5 % |
| Qumqo‘rg‘on t. | 1 432 | 6,4 % |
| Termiz t. | 1 424 | 6,4 % |
| Sho‘rchi t. | 1 373 | 6,1 % |
| Angor t. | 1 284 | 5,7 % |
| Sariosiyo t. | 1 193 | 5,3 % |
| Uzun t. | 1 116 | 5,0 % |
| Qiziriq t. | 973 | 4,3 % |
| Muzrabot t. | 960 | 4,3 % |
| Boysun t. | 904 | 4,0 % |
| Oltinsoy t. | 844 | 3,8 % |
| Bandixon t. | 518 | 2,3 % |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni

| | |
|---|---|
| 2023 | 627 |
| 2022 | 946 |
| 2021 | 1 034 |
| 2020 | 858 |
| 2019 | 1 232 |

### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

| 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|
| 9,7 % | 5,3 % | 4,7 % | 3,8 % | 2,8 % |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

69

30,5 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

80

46,5 %



Sanoat

48

80,0 %



Qurilish

291

99,7 %



Savdo

19

70,4 %



Tashish va saqlash

53

98,1 %



Yashash va ovqatlanish

14

127,3 %




Axborot va aloqa

5

31,3 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

48

54,5 %



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-fevral oylarida axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 11 tadan 14 taga (o‘sish 3 taga) ko‘paydi.

## Hududlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Termiz sh. | 126 | 2,6 % |
| Sherobod t. | 64 | 4,4 % |
| Denov t. | 59 | 2,4 % |
| Jarqo‘rg‘on t. | 55 | 3,5 % |
| Qiziriq t. | 54 | 5,6 % |
| Sho‘rchi t. | 39 | 2,9 % |
| Sariosiyo t. | 34 | 2,9 % |
| Termiz t. | 34 | 2,4 % |
| Oltinsoy t. | 33 | 3,6 % |
| Muzrabot t. | 29 | 3,0 % |
| Uzun t. | 26 | 2,3 % |
| Qumqo‘rg‘on t. | 23 | 1,6 % |
| Angor t. | 22 | 1,7 % |
| Boysun t. | 15 | 1,7 % |
| Bandixon t. | 14 | 2,7 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**2 814** — **73,9 %**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**3 791** — **81,0 %**



Sanoat

**2 568** — **92,4 %**



Qurilish

**8 087** — **97,2 %**



Savdo

**750** — **89,2 %**



Tashish va saqlash

**1 568** — **90,4 %**



Yashash va ovqatlanish

**333** — **103,4 %**




Axborot va aloqa

**362** — **94,3 %**



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**2 054** — **98,2 %**



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Termiz shahrida (22,0 foiz), Denov (10,9 foiz), Jarqo‘rg‘on (7,0 foiz), Sherobod (6,5 foiz) va Qumqo‘rg‘on (6,4 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Termiz sh. | 4 901 | 104,3 % |
| Denov t. | 2 437 | 81,8 % |
| Jarqo‘rg‘on t. | 1 561 | 78,3 % |
| Sherobod t. | 1 454 | 93,0 % |
| Qumqo‘rg‘on t. | 1 427 | 87,0 % |
| Termiz t. | 1 415 | 80,5 % |
| Sho‘rchi t. | 1 367 | 106,8 % |
| Angor t. | 1 277 | 106,7 % |
| Sariosiyo t. | 1 185 | 94,7 % |
| Uzun t. | 1 112 | 86,7 % |
| Qiziriq t. | 970 | 79,8 % |
| Muzrabot t. | 958 | 81,8 % |
| Boysun t. | 903 | 76,0 % |
| Oltinsoy t. | 843 | 95,7 % |
| Bandixon t. | 517 | 106,8 % |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Sherobod t. | 368 |
| Denov t. | 292 |
| Termiz t. | 275 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 258 |
| Uzun t. | 232 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 186 |
| Termiz sh. | 183 |
| Muzrabot t. | 168 |
| Angor t. | 165 |
| Boysun t. | 153 |
| Qiziriq t. | 150 |
| Sariosiyo t. | 143 |
| Sho‘rchi t. | 117 |
| Oltinsoy t. | 104 |
| Bandixon t. | 66 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Termiz sh. | 770 |
| Denov t. | 397 |
| Sariosiyo t. | 265 |
| Sho‘rchi t | 262 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 257 |
| Angor t. | 243 |
| Termiz t. | 217 |
| Uzun t. | 215 |
| Sherobod t. | 212 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 207 |
| Muzrabot t. | 190 |
| Oltinsoy t. | 170 |
| Boysun t. | 166 |
| Qiziriq t. | 155 |
| Bandixon t. | 97 |




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 14,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,6 foizini ishlab chiqarish sanoati 2,5 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 0,3 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish va 1,6 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash tashki etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Termiz sh. | 805 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 208 |
| Termiz t. | 201 |
| Angor t. | 163 |
| Denov t. | 160 |
| Sariosiyo t. | 150 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 133 |
| Boysun t. | 131 |
| Qiziriq t. | 123 |
| Sho‘rchi t. | 120 |
| Sherobod t. | 93 |
| Muzrabot t. | 91 |
| Oltinsoy t. | 70 |
| Bandixon t. | 70 |
| Uzun t. | 68 |




O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 61,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 88,3 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 19,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 196,8 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 19,4 foiz ulushni va 87,6 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

**496** Fuqarolik obyektlarini qurish

**501** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**1 589** Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Termiz sh. | 1 624 |
| Denov t. | 1 043 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 664 |
| Sho‘rchi t. | 611 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 553 |
| Angor t. | 471 |
| Sherobod t. | 471 |
| Termiz t. | 418 |
| Uzun t. | 404 |
| Sariosiyo t. | 376 |
| Qiziriq t. | 366 |
| Oltinsoy t. | 329 |
| Muzrabot t. | 324 |
| Boysun t. | 249 |
| Bandixon t. | 198 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 8 087 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 63,4 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 96,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 26,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 99,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 9,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 97,1 foizni tashkil etdi.

**799**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**2 170**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**5 132**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Termiz sh. | 200 |
| Denov t. | 113 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 60 |
| Sho‘rchi t. | 48 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 47 |
| Termiz t. | 41 |
| Sherobod t. | 41 |
| Uzun t. | 37 |
| Qiziriq t. | 37 |
| Sariosiyo t. | 34 |
| Oltinsoy t. | 28 |
| Angor t. | 24 |
| Muzrabot t. | 23 |
| Boysun t. | 20 |
| Bandixon t. | 6 |




2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 2,9 foiz ulushini tashkil etdi.

2019- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 102,9 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 133,8,1 foizni; pochta va kuryerlik yo‘nalishi 316,7 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni o‘zgarmagan;

suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar soni o‘zgarmagan.

| Suv transporti | Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | 19 | 178 | 560 |

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Termiz sh. | 426 |
| Denov t. | 159 |
| Termiz t. | 109 |
| Sherobod t. | 108 |
| Sariosiyo t. | 100 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 97 |
| Sho‘rchi t. | 91 |
| Boysun t. | 82 |
| Uzun t. | 80 |
| Angor t. | 76 |
| Muzrabot t. | 71 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 63 |
| Oltinsoy t. | 43 |
| Qiziriq t. | 41 |
| Bandixon t. | 30 |




2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 137,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-mart holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 8,8 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq–ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 91,2 foiz ulushini tashkil etdi.

**139** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**1 437** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Termiz sh. | 143 |
| Denov t. | 40 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 21 |
| Qiziriq t. | 20 |
| Sho‘rchi t. | 17 |
| Oltinsoy t. | 16 |
| Boysun t. | 14 |
| Uzun t. | 13 |
| Sherobod t. | 11 |
| Termiz t. | 10 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 8 |
| Sariosiyo t. | 8 |
| Bandixon t. | 7 |
| Muzrabot t. | 7 |
| Angor t. | 5 |




2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,9 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 170,0 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 27,9 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 131,5 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 51,2 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 167,3 foizni tashkil etdi.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Termiz sh. | 136 |
| Denov t. | 66 |
| Sherobod t. | 31 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 29 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 24 |
| Sho‘rchi t. | 24 |
| Angor t. | 22 |
| Sariosiyo t. | 18 |
| Uzun t. | 17 |
| Qiziriq t. | 15 |
| Termiz t. | 15 |
| Muzrabot t. | 13 |
| Oltinsoy t. | 13 |
| Boysun t. | 10 |
| Bandixon t. | 6 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 363 ta yoki 1,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

95,9 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 151,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,0 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 162,5 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 125,0 foizni tashkil etdi;



## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

| | Tadbirkorlik subyektlari soni | Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi |
|---|---|---|
| mas’uliyati cheklangan jamiyat | 11 825 | 52,7 % |
| Xususiy korxona | 5 891 | 26,3 % |
| Oilaviy korxona | 4 324 | 19,3 % |
| Unitar korxona | 97 | 0,4 % |
| Aksiyadorlik jamiyat | 20 | 0,1 % |
| Boshqalar | 272 | 1,2 % |

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

59 — 34,3 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

39 — 57,4 %



Sanoat

43 — 81,1 %



Qurilish

199 — 118,5 %



Savdo

18 — 85,7 %



Tashish va saqlash

24 — 92,3 %



Yashash va ovqatlanish

11 — 220,0 %




Axborot va aloqa

4 — 44,4 %



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

38 — 64,4 %



Boshqa turlar

**Mas’uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyati hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Termiz sh. | 111 | Oltinsoy t. | 18 |
| Sherobod t. | 47 | Qumqo‘rg‘on t. | 18 |
| Denov t. | 41 | Angor t. | 15 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 37 | Muzrabot t. | 15 |
| Qiziriq t. | 36 | Boysun t. | 13 |
| Sho‘rchi t. | 26 | Bandixon t. | 11 |
| Sariosiyo t. | 19 | Uzun t. | 9 |
| Termiz t. | 19 | | |

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni — Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida











| Faoliyat turi | Soni | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1 629 | 92,3 % |
| Sanoat | 1 669 | 90,7 % |
| Qurilish | 1 802 | 97,3 % |
| Savdo | 4 071 | 107,3 % |
| Tashish va saqlash | 602 | 90,9 % |
| Yashash va ovqatlanish | 473 | 103,3 % |
| Axborot va aloqa | 175 | 81,7 % |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 168 | 100,6 % |
| Boshqa turlar | 1 236 | 104,0 % |

2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 22 429 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 11 825 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o‘sish sur’atlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich savdoda – 107,3 foiz, yashash va ovqatlanishda – 103,3 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda – 100,6 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Termiz sh. | 3 355 | Boysun t. | 515 |
| Denov t. | 1 130 | Sariosiyo t. | 514 |
| Termiz t. | 872 | Qiziriq t. | 479 |
| Sherobod t. | 802 | Muzrabot t. | 465 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 763 | Uzun t. | 372 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 675 | Oltinsoy t. | 313 |
| Angor t. | 644 | Bandixon t. | 285 |
| Sho‘rchi t. | 641 | | |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

1
0,3 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

12
1,3 %

Sanoat

3
0,5 %

Qurilish

52
2,0 %

Savdo

1
0,8 %

Tashish va saqlash

6
1,1 %

Yashash va ovqatlanish

2
1,7 %


Axborot va aloqa

5
1,0 %

Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2023- yil yanvar-fevral oylarida savdoda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 6 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Uzun t. | 11 | Termiz sh. | 6 |
| Denov t. | 9 | Jarqo‘rg‘on t. | 5 |
| Sariosiyo t. | 9 | Termiz t. | 4 |
| Muzrabot t. | 8 | Oltinsoy t. | 4 |
| Qiziriq t. | 7 | Qumqo‘rg‘on t. | 3 |
| Sherobod t. | 7 | Angor t. | 2 |
| Sho‘rchi t. | 6 | Bandixon t. | 1 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan 6,0 foizga ko‘paydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘sish sur’atlarining 2019- yilga nisbatan ko‘payishiga axborot va aloqa (131,5 foiz), savdo (126,5 foiz), sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohalari (117,7 foiz), tumanlar kesimida esa – Sho‘rchi (133,5 foiz), Sariosiyo (125,9 foiz), Angor (124,0 foiz) va Uzun (114,4 foiz) tumanlari ta’sir ko‘rsatmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Termiz sh. | 1 140 | Termiz t. | 297 |
| Denov t. | 759 | Sherobod t. | 292 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 476 | Muzrabot t. | 272 |
| Uzun t. | 462 | Oltinsoy t. | 207 |
| Sho‘rchi t. | 418 | Qiziriq t. | 205 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 410 | Boysun t. | 145 |
| Sariosiyo t. | 379 | Bandixon t. | 88 |
| Angor t. | 341 | | |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



6 — 0,8 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



28 — 2,4 %

Sanoat



2 — 2,4 %

Qurilish



40 — 2,8 %

Savdo



23 — 4,3 %

Yashash va ovqatlanish



1 — 3,8 %

Axborot va aloqa



1 — 4,8 %

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



5 — 1,9 %

Boshqa turlar

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Oltinsoy t. | 10 | Qiziriq t. | 11 |
| Angor t. | 5 | Sariosiyo t. | 6 |
| Bandixon t. | 2 | Termiz t. | 11 |
| Boysun t. | 2 | Uzun t. | 6 |
| Muzrabot t. | 6 | Sherobod t. | 10 |
| Denov t. | 9 | Sho‘rchi t. | 4 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 13 | Termiz sh. | 9 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 2 | | |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**767**
**54,6 %**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**1 159**
**73,8 %**

Sanoat

**85**
**106,3 %**

Qurilish

**1 433**
**95,4 %**

Savdo

**26**
**100,0 %**

Tashish va saqlash

**538**
**91,5 %**

Yashash va ovqatlanish

**26**
**86,7 %**


Axborot va aloqa

**21**
**123,5 %**

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**269**
**99,6 %**

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 3 483 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 198 tadan 1 433 taga (o‘sish 1 235 taga), sanoatda – 208 tadan 1 159 taga (o‘sish 951 taga), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 98 tadan 767 taga (o‘sish 669 ta) soning sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Oltinsoy t. | 300 | Qiziriq t. | 275 |
| Angor t. | 282 | Sariosiyo t. | 271 |
| Bandixon t. | 136 | Termiz t. | 235 |
| Boysun t. | 225 | Uzun t. | 262 |
| Muzrabot t. | 187 | Sherobod t. | 338 |
| Denov t. | 523 | Sho‘rchi t. | 286 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 313 | Termiz sh. | 378 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 313 | | |

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil yanvar-fevral holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Sanoat




Savdo

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

### Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Termiz sh. | 13 |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**79**
**62,7 %**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**109**
**77,9**



Sanoat

**37**
**97,4 %**



Qurilish

**221**
**104,7 %**



Savdo

**13**
**130,0 %**



Tashish va saqlash

**20**
**90,9 %**



Yashash va ovqatlanish

**2**
**100,0 %**




Axborot va aloqa

**7**
**87,5 %**



Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**23**
**109,5 %**



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 2,4 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 363 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Afg‘oniston Islom Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 71,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Viloyat iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 7,6 foiz), Tojikiston (ulushi 4,3 foiz), Turkiya (ulushi 3,5 foiz) va Xitoy (ulushi 2,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Oltinsoy t. | 4 | Qiziriq t. | 6 |
| Angor t. | 20 | Sariosiyo t. | 20 |
| Bandixon t. | 3 | Termiz t. | 29 |
| Boysun t. | 8 | Uzun t. | 25 |
| Muzrabot t. | 10 | Sherobod t. | 7 |
| Denov t. | 12 | Sho‘rchi t. | 9 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 8 | Termiz sh. | 342 |
| Qumqo‘rg‘on t. | 8 | | |

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

| | |
|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 40 |
| Tojikiston Respublikasi | 25 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 14 |
| Turkmaniston Respublikasi | 5 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 2 |
| Armaniston Respublikasi | 2 |
| Ukraina Respublikasi | 1 |
| Boshqa davlatlar | 422 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan 511 ta korxonalardan 112 tasi qo‘shma korxonalar, 399 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| 339 | Surxondaryo viloyati | 112 |
| 1 | Oltinsoy tumani | 3 |
| 15 | Angor tumani | 5 |
| 1 | Bandixon tumani | 2 |
| 3 | Boysun tumani | 5 |
| 6 | Muzrabot tumani | 4 |
| 6 | Denov tumani | 6 |
| 4 | Jarqo‘rg‘on tumani | 4 |
| 4 | Qumqo‘rg‘on tumani | 4 |
| 5 | Qiziriq tumani | 1 |
| 10 | Sariosiyo tumani | 10 |
| 18 | Termiz tumani | 11 |
| 11 | Uzun tumani | 14 |
| 4 | Sherobod tumani | 3 |
| 4 | Sho‘rchi tumani | 5 |
| 307 | Termiz shahar | 35 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda*

| | xorijiy korxonalar | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 52 | 27 |
| Sanoat | 65 | 44 |
| Qurilish | 34 | 3 |
| Savdo | 194 | 27 |
| Tashish va saqlash | 10 | 3 |
| Yashash va ovqatlanish | 18 | 2 |
| Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 6 | 1 |
| Axborot va aloqa | 1 | 1 |
| Boshqa turlar | 19 | 4 |

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soning ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- mart holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.:(76) 225-65-90